

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№ 4
maxsus son

2025
IYUL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINIG
MAQOLALARI
TO'PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
25 sahifa, iyul, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellash
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Nostandart bandlikning asosiy shakllari: ijtimoiy inklyuziya va iqtisodiy diversifikatsiya vositasi sifatida	10
Zuxra Abdikarimova, Saida Eshchanova	
“Raqamli transformatsiya sharoitida davlat va xususiy sektorda korporativ boshqaruv strategiyasini yangilash: O‘zbekiston modeli”	16
Tojaliyev Sherdorbek Elmurod o‘g‘li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o‘g‘li	
Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida turizm sohasini yaxshilash va hududiy raqobatbardoshlikni ta’minlashning yarim zamonaviy yo‘nalishlari	20
Ametov Quvandik Mamatjanovich, Karrieva Dildora Ruslan qizi	



MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TURIZM SOHASINI YAXSHILASH VA HUDUDIIY RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASHNING YARIM ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

Ametov Quvandik Mamatjanovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti

Elektron pochta: Shoxibek_2009@mail.ru

Karrieva Dildora Ruslan qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To'rtko'l fakulteti talabasi

Elektron pochta: karrieva2004@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada turizm sohasining bugungi kunda jahon miqyosida tutgan o'rni, xizmatlar sifatini oshirishning muhim omillari, hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash usullari va zamonaviy yondashuvlar tahlil etilgan. Smart turizm, barqaror rivojlanish, tematik turlar, brendlashtirish va raqamli texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatishning afzalliklari real misollar hamda statistik ma'lumotlar asosida ochib berilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekiston misolida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro tajriba bilan taqqoslanib tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: turizm xizmati, raqobatbardoshlik, smart turizm, barqaror rivojlanish, brendlashtirish, raqamli texnologiya, tematik turlar.

Abstract: This article analyzes the current global role of the tourism industry, important factors for improving the quality of services, methods for ensuring regional competitiveness, and modern approaches. The advantages of smart tourism, sustainable development, thematic tours, branding, and digital technology-based services are revealed based on real examples and statistical data. The article also presents the reforms being implemented in Uzbekistan and a comparative analysis with international experience.

Keywords: tourism service, competitiveness, smart tourism, sustainable development, branding, digital technology, thematic tours.

Аннотация: В статье анализируется современная мировая роль туристической отрасли, важные факторы повышения качества услуг, методы обеспечения региональной конкурентоспособности и современные подходы. Преимущества умного туризма, устойчивого развития, тематических туров, брендинга и предоставления услуг на основе цифровых технологий раскрываются на реальных примерах и статистических данных. В статье также представлен сравнительный анализ реформ, реализуемых в Узбекистане, и международного опыта.

Ключевые слова: туристическая услуга, конкурентоспособность, умный туризм, устойчивое развитие, брендинг, цифровые технологии, тематические туры.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo bo'ylab turizm sohasi pandemiyadan so'ng jadal sur'atlarda tiklanib, global iqtisodiyotdagi o'rni yanada mustahkamlanmoqda. Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO)ning 2024-yilning mart oyida e'lon qilgan hisobotiga ko'ra, 2023-yilda xalqaro sayohatlar soni pandemiyadan oldingi darajaning 88 foiziga yetgan. Xususan, Markaziy Osiyo davlatlari orasida O'zbekiston eng tez tiklanayotgan turizm yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'ziga xos tabiati, boy tarixiy merosi va mehmondo'st xalqiga tayanib, 2023-yilda 6,6 milliondan ortiq xorijiy sayyohni qabul qilgan. Bu 2022-yilga nisbatan 1,2 millionga ko'p deganidir. Shuningdek, turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish, hududlar o'rtasidagi raqobatni sog'lom asosda rivojlantirish va yangi texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalaga aylangan.

O'zbekistonda so'nggi yillarda turizm infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Samarqandda 2023-yilda foydalanishga topshirilgan "Silk Road Samarkand" turistik markazi qisqa muddat ichida minglab sayyohlarni jalb qilmoqda. Ushbu markazda zamonaviy mehmonxonalar, tibbiy va ekologik turizmga ixtisoslashgan maskanlar faoliyat yuritmoqda. Buxoro va Xiva shaharlarida esa tarixiy obidalarni rekonstruksiya qilish va QR-kodli axborot tizimlarini joriy etish orqali madaniy meros obyektlari bilan



tanishish yanada qulaylashgan. Bu yondashuv xizmatlar sifatini nafaqat tashqi ko'rinishda, balki mazmunan ham boyitmoqda.

Turizm xizmatlarining raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan yana biri — bu malakali kadrlar bilan ta'minlash hisoblanadi. 2023-yilda Turizm va madaniy meros vazirligi tomonidan tashkil etilgan maxsus qisqa muddatli kurslar orqali 1 500 dan ortiq gid va mehmonxona xodimlari qayta tayyorlangan. Bunga qo'shimcha ravishda, Samarqand xalqaro turizm universiteti bitiruvchilari orasida ish bilan bandlik darajasi 85 foizga yetgan, bu esa kadrlar bozori va ta'lim tizimi o'rtasidagi integratsiyaning ijobiy natijasidir. Shu bilan birga, chet tillarni bilish darajasi ham ortib bormoqda: 2024-yil boshida O'zbekistondagi turistik gidlarning 40 foizi ingliz tilida erkin so'zlasha olish darajasiga ega ekani qayd etilgan.

Turizm xizmatlarining zamonaviy yo'nalishlaridan biri sifatida raqamli texnologiyalar jadal sur'atlarda joriy etilmoqda. "Uzbekistan.travel" rasmiy portali va mobil ilovalar orqali sayyohlar turar joy band qilish, gid xizmatlari buyurtma qilish, transport xaritasidan foydalanish imkoniga ega bo'lmoqda. 2023-yilda bu tizim orqali 200 mingdan ortiq foydalanuvchi xizmat ko'rsatishdan foydalangan. Samarqand shahrida sinov tariqasida ishga tushirilgan "Smart Tourism City" loyihasi esa transport, xavfsizlik, axborot va xizmat ko'rsatish tizimlarini yagona platformaga birlashtirib, kelajakda boshqa shaharlarga ham tatbiq etilishi rejalashtirilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida turizm sohasining o'rnini tobora ortib borayotgan sharoitda, uning zamonaviy yo'nalishlarini aniqlash va hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash masalasi ko'plab olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Xususan, J. Tribe turizmni nafaqat iqtisodiy faoliyat turi, balki hududiy innovatsiyalarni faollashtiruvchi omil sifatida tahlil qilgan. Uning fikricha, turizm sohasidagi transformatsiyalar mintaqaviy raqobatbardoshlik strategiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. C.M. Hall esa regional turizm siyosatini ishlab chiqishda institutsional yondashuv muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. U hukumatlar, xususiyl sektor va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlik mintaqaning umumiy jozibadorligini oshirishini qayd etgan.

Boshqa tomondan, D. Buhalising izlanishlarida raqamli texnologiyalar asosida shakllangan smart-turizm konsepsiyasi asosiy e'tiborga loyiq. Uning ta'rificha, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari turizm xizmatlarining shaffofligi, xavfsizligi va moslashuvchanligini oshirib, turistik hududlarning tanlovda ustun bo'lishiga xizmat qiladi. Ayni yo'nalishda F. Gössling va S. Scott ekologik barqarorlik masalalariga urg'u berib, iqlim o'zgarishi sharoitida turizm strategiyalarini qayta ko'rib chiqish zarurligini ilmiy asoslagan. Ularning tahliliga ko'ra, yashil turizm va kam uglerodli strategiyalar mintaqaning ekologik hamda iqtisodiy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mahalliy kontekstdan kelib chiqib, S. Mirziyoyev rahbarligidagi O'zbekiston siyosatida turizmni iqtisodiy diversifikatsiyaning muhim vektori sifatida rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Iqtisodchi olimlar S. Komilov va X. Norboyev o'z tadqiqotlarida O'zbekiston viloyatlaridagi turistik infratuzilmaning holati, investitsiya jalb qilish darajasi hamda brending siyosatining mintaqaviy raqobatbardoshlikka ta'sirini tahlil qilgan. Ularning fikricha, turizm sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, mahalliy servisni xalqaro mezonlarga moslashtirish orqali mintaqaning iqtisodiy salohiyati sezilarli darajada oshadi.

Shuningdek, L. Dwyer va P. Forsyth turizmning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini tahlil qilib, bu sohani mintaqaviy iqtisodiy siyosat bilan uyg'unlashtirish samaradorligini asoslagan. Ular hududiy byudjetga tushumlar, ish o'rinlari yaratilishi va infratuzilmaviy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni o'z modellari orqali ko'rsatib bergan. Yuqoridagi adabiyotlar asosida aytish mumkinki, turizmni mintaqaviy iqtisodiyotiga strategik integratsiyalash barqaror raqobat ustunliklarini shakllantirishda hal qiluvchi omildir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda turizm sohasini rivojlantirish va hududiy raqobatbardoshlikni baholash uchun statistik ma'lumotlar, davlat dasturlari va ilmiy manbalar tahlil qilindi. Ma'lumotlar kontent tahlili va taqqoslov usuli yordamida o'rganilib, mintaqaviy iqtisodiy ko'rsatkichlar, infratuzilma holati hamda investitsion faollik darajasi bo'yicha tahlil amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlar o'rtasidagi raqobatbardoshlikni oshirishda brendlashtirish va marketing strategiyalarining roli katta. Har bir viloyat o'zining noyobliligi asosida turizmni rivojlantirish yo'lini tanlamoqda. Masalan, Farg'onada hunarmandchilik, Toshkent viloyatida agro- va eko-turizm, Qoraqalpog'istonda esa Orolbo'yi sarguzasht turizmi yo'nalishlari ustuvorlik qilmoqda. Turizmni hududiy asosda rivojlantirishda xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish ham ijobiy natijalar bermoqda. 2024-yilning mart oyida Berlinda o'tgan ITB Berlin xalqaro turizm yarmarkasida O'zbekiston stendi eng ko'p tashrif buyurilgan milliy stend sifatida e'tirof etilgan.



Turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar ham muhim o'rin tutadi. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentabrdagi "Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatimizning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 582-son'li qarori qabul qilingan. Ushbu qaror bilan turizmning yangi turlari, jumladan, ekologik, gastronomik, ekstremal va tibbiy turizm yo'nalishlarini rivojlantirish, hududiy turistik salohiyatni oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilash bo'yicha aniq vazifalar belgilangan.

Turizm sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-noyabrdagi "Tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirish va ularning qonuniy ishlashi uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 745-son'li qarori qabul qilingan. Ushbu qaror bilan turoperatorlar va mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari, subsidiyalar va boshqa moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilgan.

O'zbekiston Respublikasida turizm xizmatlari sifatini oshirish va hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash bo'yicha qabul qilingan qonun hamda farmonlar sohaning barqaror rivojlanishiga, xizmatlar sifatining oshishiga va hududiy turistik salohiyatning to'liq ro'yobga chiqishiga xizmat qilmoqda. Ushbu hujjatlar asosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar nafaqat sayyohlar oqimini oshirishga, balki mamlakat iqtisodiyotining umumiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlashda brendlashtirish alohida o'rin tutadi. Brendlashtirish deganda, muayyan hududning o'ziga xos tabiiy, madaniy yoki tarixiy resurslari asosida turizm imijini shakllantirish tushuniladi. Masalan, Buxoro "Sharq marvaridi", Xiva esa "Ochiq osmon ostidagi muzey" sifatida targ'ib qilinmoqda. Bu esa ichki va xorijiy turistlar orasida hududning tanilishini oshirishga, sayohatga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishga xizmat qiladi. 2023-yilda faqatgina "Silk Road Samarkand" brendi ostida tashkillashtirilgan tadbirlar orqali 300 mingdan ortiq sayyoh jalb qilingan. Raqamli texnologiyalar esa turizm xizmatlari sifatini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda turistik xizmat ko'rsatuvchilarning aksariyati elektron rezervatsiya, onlayn to'lov, virtual gidlik, sun'iy intellekt asosidagi mijozlar bilan ishlash tizimlari (chatbotlar) kabi zamonaviy yechimlardan foydalanmoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda 700 dan ortiq mehmonxona onlayn bron tizimiga ulangan va Turizm qo'mitasining rasmiy mobil ilovasi orqali 100 mingdan ortiq foydalanuvchi xizmat olgan. Bu esa xizmatlar tezkorligi, shaffofligi va turistlarning qoniqish darajasini oshirmoqda.

Shuningdek, turizmda tematik turlar joriy etilishi xizmatlarni diversifikatsiya qilishning samarali vositasiga aylangan. Tematik turlar deganda ma'lum bir mavzuga yo'naltirilgan sayohatlar tushuniladi: masalan, ziyorat turizmi (Buxoro, Termiz), gastronomik turizm (Samarqand palov festivali), ekoturizm (Zomin, Kitob biosfera hududlari) va ekstremal turizm (Chorvoq, Nurata). 2023–2024-yillarda Turizm qo'mitasi tomonidan 60 dan ortiq yangi tematik yo'nalish ishlab chiqilgan va viloyatlar kesimida maxsus paketlar asosida sayohatlar yo'lga qo'yilgan.

Barqaror va ekologik turizm ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zaamin va Ugom-Chotqol mintaqalarida elektr transport vositalari, quyosh panelli dam olish maskanlari va chiqindisiz xizmatlar yo'lga qo'yilmoqda. Shu yo'nalishda Jahon banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "Yashil turizm" loyihasi doirasida 2024-yilda 2 million AQSH dollari miqdorida grant ajratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashtirish va raqobat sharoitida turizm sohasi mamlakatlar iqtisodiyoti va xalqaro nufuzini oshirishda muhim omilga aylanmoqda. O'zbekiston misolida olib qaralganda, so'nggi yillarda turizm xizmatlari sifatini oshirish hamda hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash yo'lida muhim institutsional va innovatsion islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident farmon va qarorlariga asosan, turizm infratuzilmasi modernizatsiya qilinib, raqamli texnologiyalar keng joriy etilmoqda, xizmatlar sifati esa xalqaro standartlarga yaqinlashtirilmoqda. Shuningdek, hududlarning turistik brendlarini shakllantirish, tematik turlar orqali xizmatlarni diversifikatsiya qilish va marketing strategiyalarini yangilash bo'yicha aniq choralar ko'rilmogda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, turizm xizmatlarining sifati va hududiy raqobatbardoshlik o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularni ta'minlash zamonaviy boshqaruv uslublari, innovatsion yondashuvlar, axborot texnologiyalaridan foydalanish va normativ-huquqiy asoslarning izchil takomillashuviga tayanadi. Kelgusida bu yo'nalishdagi ishlar izchil davom ettirilsa, O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi yetakchi turistik markazlardan biriga aylanishi tabiiy jarayon bo'ladi.

1 <https://lex.uz/docs/-7114983>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-7206097>



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-9-sonli farmon. Lex.uz: <https://lex.uz/docs/6453096>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). Turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida PF-102-sonli farmon. Lex.uz: <https://lex.uz/docs/7504830>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2024). Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatimizning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 582-sonli qaror. Lex.uz: <https://lex.uz/docs/7395814>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2024). Umumiy ovqatlanish, mehmonxona va turoperatorlik xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirish va ularning qonuniy ishlashi uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish to'g'risida 745-sonli qaror. Lex.uz: <https://lex.uz/docs/7547746>
5. "To'siqsiz turizm" infratuzilmasini rivojlantirishga oid yangilik. (2024). Gazeta.uz sayti. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/18/accessible-tourism>
6. Davlat statistika qo'mitasi. (2024). O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi statistik ko'rsatkichlari (2023 yil yakuni bo'yicha). Stat.uz: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/turizm>
7. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. (2023). Silk Road Samarkand loyihasi doirasida amalga oshirilgan tadbirlar statistikasi. Tourism.uz: <https://uzbektourism.uz>
8. Qurbonov A.X., Xasanov R.R. (2023). Turizm xizmatlari sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar. Ilmiy maqola, "Iqtisodiyot va innovatsiyalar" jurnali, 4-son, 45–52-betlar.
9. Norqulov D.E. (2022). Hududiy raqobatbardoshlik va turizm infratuzilmasining rivojlanish omillari. "Turizmni rivojlantirish muammolari" ilmiy to'plami, Toshkent.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

4-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100